

**NIZONI MEDIATSIYA USULI ORQALI HAL QILISH HAMDA
SUD TARTIBIDA KO'RIB CHIQISH JARAYONLARINING O'ZARO
FARQLI JIHALTLARI**

Do'smatov Jasurbek

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasida nizolarni hal qilishda mediatsiya institutlarining shakllanganligi va faoliyat ko'rsatishi davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va hayotimizning boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Qonun ijodkorligi jarayoni va texnologiyalari tubdan o'zgardi. Shu bilan birga nizolarni hal qilishda mediatsiya institutlarini takomillashtirishga bo'lgan talab yanada kuchaydi hamda ushbu sohadagi imkoniyatlar kengaydi. Ushbu tezisda nizoni mediatsiya usuli orqali hal qilishning sud tartibida ko'rib chiqish jarayonidan foydaliroq jihatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, fuqarolik sudi, iqtisodiy sud, mediativ kelishuv.

Mediatsiya o'zgaruvchan jarayon hisoblanib, taraflar nizoni ko'rib chiqish jarayonini o'z xohishiga ko'ra tartibga solishlari mumkin, ularga muammoni muhokama etish uchun erkin sharoit yaratiladi. Shu bilan birga mediatorning o'zi ham taraflarga nizoni hal qilish yo'lini topishga yordam beradi.

Sud ishining ommaviyligi, oshkoraligi va ochiqligidan farqli ravishda mediatsiya jarayoniga maxfiylik xosdir. Taraflardan olingan barcha

ma'lumotlar, «devordan tashqariga chiqmaydi» va mediatorning faoliyati tugagandan so'ng uning barcha yozuvlari yo'q qilinishi lozim.

Xususan, huquqlarni davlat sudlarida himoya qilishning sud shaklidan mediatsiya jarayonining asosiy farqi mediatorning nizoning mohiyatiga nisbatan o'z-o'zidan hech qanday qaror qabul qilmasligi hisoblanadi. Mediatsiya doirasidagi barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro roziligi asosida qabul qilinadi. Sudda nizolar sud'yalar tomonidan taraflar uchun majburiy bo'lgan va majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar chiqarish yo'li bilan tugatiladi. Shuningdek, sudlarda ishlarning ko'pligi va ishlarni ko'rib chiqish oylab cho'zilganligi tufayli mediatsiya orqali nizolarni hal etish vaqtning tejallishiga olib keladi, ko'pincha bir ish bo'yicha nizolar ikkinchi va uchinchi instantsiyada davom etadi, yutqazgan taraf sud hujjatlari ustidan shikoyat qiladi, yuridik yordam olishga sarflanadigan xarajatlar sud jarayonining davom etish muddati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli nizolarni tezkorlik bilan hal qilinishi mediatsiyaning tejamkorligini bildiradi.

Ustiga ustak, sud qarorlari har doim ham taraflar istagan oqibatga olib kelmaydi (kamida bir taraf ishning natijasidan noroziligicha qoladi) va bu holat kelajakda sud qarorlarini nafaqat ixtiyoriy bajarishdan bosh tortilishiga, balki bajarishga majburiy to'sqinlik qilinishiga olib keladi. Mediatsiya davomida barcha qarorlar taraflarning ikki tomonlama kelishuviga ko'ra qabul qilinadi va ikkala taraf o'zlari tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlarini ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladilar.

Mediatsiyaning rad etib bo'lmaydigan ustunliklaridan yana biri taraflar o'rtasidagi yaxshi, do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisoblanadi. Mediatsiya ayniqsa, mulkni taqsimlash, er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, mehnat nizolarini hal etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi.

Nizolarni muqobil (sudgacha) hal qilish usuli yordamida nizolashuvchi taraflarga xolis, betaraf mediator o'zaro maqbul kelishuvga erishishga yordam

berishi, lekin u nizo bo'yicha qaror qabul qilishga va taraflarning hech biriga maslahat berishga haqli emasligi, mediator taraflarning talablaridan (pozitsiya) kelib chiqib, ularni asl manfaatlarini aniqlashi lozimligi va bunda mediator bir qator mediatsiya instrumentlaridan foydalanishi lozimligi asoslantirildi.

Keyngisi, fuqarolik protsessida kelishuv bitimi tuzish bilan mediatsiya tartib-taomilining mazmuni, mohiyati va amalga oshirish tartibiga ko'ra quyidagi farqlarga ega ekanligi asoslantirildi:

nizolarni hal qilishda sud tizimining afzalliklariga qaramay, uning o'ziga hos kamchiliklari ham mavjud. Shulardan asosiysi sifatida sudlardagi ish hajmini yuqoriligini ko'rsatish mumkin, shuningdek, jarayonni oshkora o'tishi, vaqt va ortiqcha mablag'ni sarflanishi, asablarni buzilishi (sog'liqqa ta'siri), sudda faqat bir tomonning g'olib bo'lishi, ikkinchi tomonning noroziligi sababli jarayon apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarigacha borishi mumkin;

sud tartibidan farqli ravishda nizolashuvchi shaxslar mediatori o'zlari tanlaydilar va mediatsiya jarayoniga ixtiyoriy kirishadilar. Sudda taraflar sud`yani tanlay olmaydi, taraflar sudga sudlovlilik qoidalariga rioya etgan holda murojaat qilishga majburlar. Shuningdek, taraflar mediatorga onlayn murojaat qilishlari, yoki nizoni komediator (ikki va undan ortiq) lar ishtirokida hal etishlari, nizoni hal etishga yordam berishi mumkin bo'lgan mutaxassisni o'zlari tanlash huquqiga ega;

ish yuritish vazifalari jihatidan qarasa, sudning vazifasi taraflarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo'lsa, mediatsiya taraflarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli hil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan;

ish yuritishning tartibiga ko'ra, mediatsiya sud jarayoniga nisbatan maxfiy tarzda o'tkaziladi va har bir taraf istagan vaqtda uni davom ettirishdan bosh tortishi mumkin, sudda esa aksincha, muzokaralarni istalgan vaqtda tugatib bo'lmaydi, jarayon ham oshkora bo'ladi.

Shuningdek, sudda vaqt chegaralanganligi sababli taraflarga nizo bo'yicha muammolarni batafsil yetkazishga har doim ham imkoniyat bo'lmaydi, mediatsiyada taraflar istaganlaricha barcha masalalarni bimalol muhokama qiladilar;

nizolar sud tartibida hal etilishida sudya sud tartibining bosqichlariga qat'iy rioya etishi talab etiladi, mediatsiya tartib-taomilida esa taraflar nizoni hal qilish uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan chiqmagan holda, har qanday bosqichni qayta takrorlashlari, unga aniqlik kiritishi, yoki ma'lum bir bosqichni chetlab o'tishlari mumkin;

mediatsiyaning yana bir farqli va ustivor jihatlaridan biri, taraflar mediativ kelishuvga erishishlari jarayonida mediator bilan yakkama-yakka tartibda muzokaralar olib borishi mumkin, sud tartibida kelishuvga erishi jarayonida sud taraflar bilan alohida uchrashuv (faqatgina ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichidan tashqari) o'tkazishiga protsessual jihatdan yo'l qo'yilmaydi;

protsessual tartib va ishni olib borish tartibiga ko'ra, sud jarayoni protsessual qonunlar doirasida o'tkaziladi, qaror faqat qonunga asoslanib qabul qilinadi, mediatsiya tartib-taomilida mediativ kelishuv esa taraflarning xoxish-istaklari asosida qabul qiladilar;

sudda nizolashayotgan taraflar sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirlarida ham uni bajarishga majburlar. Mediatsiyada barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar;

sud tartibidagi kelishuv bitimi tuzilishi, sud ishini yuritishning tugatilishiga va taraflarning ushbu talab va asoslarga ko'ra qayta sudga murojaat qililariga to'sqinlik qilsa, mediativ kelishuv esa taraflarning o'z huquq va manfaatlarini kelgusida sud tartibida himoya qilishlarini cheklamaydi.